HARBIY XIZMAT SHAROITIDA FARZANDLARNING UZLUKSIZ MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

KALANDAROV Xudayor Iskandarovich
O'R MV Qo'mondonlik boshqarma boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Harbiy xizmatning murakkab shart-sharoitlari, xususan, muntazam hududiy rotatsiya (ko'chish) jarayonlarining farzandlar ijtimoiy-pedagogik moslashuviga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, harbiy oilalarda tarbiya uzluksizligini ta'minlash maqsadida "Ta'lim muassasasi – Oila – Harbiy qism" hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan pedagogik mexanizmlarni yaratish, ota-onalarning pedagogik kompetentligini yuksaltirish hamda maxsus adaptiv ta'lim-tarbiya dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi oilasi, uzluksiz tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik tizim, rotatsiya, ijtimoiy-pedagogik moslashuv, pedagogik hamkorlik, ota-onalar kompetentligi.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются специфические педагогические особенности организации непрерывного духовно-нравственного воспитания в семьях военнослужащих. Изучено влияние сложных условий военной службы, в частности, постоянных переездов (ротации), на социально-педагогическую адаптацию детей. В результате исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по внедрению педагогических механизмов, основанных на сотрудничестве «Образовательное учреждение – Семья – Воинская часть», повышению педагогической компетентности родителей и применению

специальных адаптивных образовательно-воспитательных программ с целью обеспечения непрерывности воспитания в семьях военнослужащих.

Ключевые слова: семья военнослужащего, непрерывное воспитание, духовно-нравственное воспитание, педагогическая система, ротация, социально-педагогическая адаптация, педагогическое сотрудничество, компетентность родителей.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the specific pedagogical features of organizing continuous spiritual and moral education in the families of military personnel. The impact of the complex conditions of military service, particularly constant relocation (rotation), on the socio-pedagogical adaptation of children is studied. As a result of the research, scientifically based proposals and recommendations were developed to introduce pedagogical mechanisms based on “Educational institution – Family – Military unit” cooperation, improve the pedagogical competence of parents, and implement special adaptive educational programs to ensure the continuity of education in military families.

Keywords: military family, continuous education, spiritual and moral education, pedagogical system, rotation, socio-pedagogical adaptation, pedagogical cooperation, parental competence.

Hozirgi kunda jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Bu borada mamlakatimiz suverenitetini himoya qilishdek sharafli vazifani bajarayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oilalari bilan ishlash tizimini pedagogik jihatdan takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahondagi global o‘zgarishlar va keskin raqobat davri, yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar yoshlarni harbiy-

vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni talab etmoqda. Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash jarayoni o‘zining ijtimoiy-falsafiy va pedagogik xususiyatlariga ega bo‘lib, u uzluksiz tarbiya jarayonini talab etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan global o‘zgarishlar va harbiy xizmatning o‘ziga xos shart-sharoitlari, jumladan, doimiy ko‘chib yurish zarurati oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni saqlab qolish va farzandlarga to‘g‘ri tarbiya berish masalasiga alohida yondashishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiylar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan bo‘lib, bu sohadagi chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda [1]. Harbiy xizmatchilarning farzandlari doimiy ravishda yangi ijtimoiy va madaniy muhitga moslashish jarayonini boshdan kechirishini hisobga olsak, ularda intellektual rivojlanish, axloqiy yetuklik va intizomni shakllantirishda pedagogik omillarning o‘rni beqiyosdir.

Doimiy ko‘chib yurish zarurati bilan bog‘liq holda, harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimini ilmiy asoslash zarurati yuzaga keladi. Ushbu tizim oila va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, ota-onalarning mas'uliyatini oshirish hamda bolalarda Vatanga sadoqat, mas'uliyat va jasorat fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik dasturlarni o‘z ichiga olishi lozim [5]. Mazkur jarayonni yanada optimallashtirish uchun harbiy va fuqarolik sektorlaridagi ta'lim muassasalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zaruriyati seziladi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning markaziy omili sifatida tadqiq etish pedagogika fanining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil

etishning pedagogik tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish bugungi kunda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va uning amaliy samaradorligini ta’minlash maqsadida ushbu tadqiqotda kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik poydevorini pedagogik jarayonlarni o‘rganishda keng qo‘llaniladigan tizimli-funksional, qiyosiy va dialektik yondashuvlar tashkil etadi [6]. Ushbu yondashuvlar harbiy oilani yaxlit ijtimoiy institut sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Nazariy qismni tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, shuningdek, retrospektiv hamda kontent-analiz usullari qo‘llanildi. Xususan, respublikamizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, konsepsiyalar va farmonlar mazmuni tanqidiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganib chiqildi [1, 2]. Bu esa harbiy oilalardagi tarbiyaviy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi [8].

Tadqiqotning empirik qismida harbiy xizmatchilar oilalaridagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning real holati, xususan, doimiy ko‘chib yurish (rotatsiya) jarayonining farzandlar ijtimoiy-pedagogik moslashuviga ta'sirini o‘rganish maqsadida pedagogik kuzatish, ochiq suhbat va so‘rovnoma usullaridan foydalanildi [4, 9]. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, farzandlari hamda hududiy ta'lim muassasalarining mutaxassislari (pedagoglar, sinf rahbarlari) bilan maqsadli muloqotlar tashkil etildi [7]. Bu usul oiladagi tarbiyaviy rollar taqsimoti va ota-onalarning pedagogik mas'uliyatini obyektiv baholashga yordam berdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar natijasida olingan empirik va nazariy ma'lumotlar tizimlashtirilib, harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning tashkiliy-uslubiy asoslari hamda o‘zaro hamkorlikka (“Ta'lim muassasasi – Oila – Harbiy qism”) asoslangan pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi [3, 10]. Tanlangan metodologik apparat va usullar maqolaning tahlil va natijalar qismida keltirilgan ijtimoiy-pedagogik muammolarni chuqur ochib berish va dolzarb amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini ta’minlash maqsadida olib borilgan tadqiqot jarayonida qator muhim empirik va nazariy natijalar qo‘lga kiritildi. Ma'lumki, harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash jarayoni o‘zining murakkabligi, ko‘p qirraliligi hamda muayyan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, tahlil qismi bir nechta o‘zaro uzviy bog'liq yo‘nalishlarga bo‘lingan holda yoritildi.

1. Harbiy xizmatchilar oilalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning holati va uning o‘ziga xos xususiyatlari Tadqiqot doirasida olib borilgan dastlabki kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, harbiy oilalarda farzandlar tarbiyasi ota-onalarning kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'liq holda kechadi. Harbiy xizmatning qat'iy tartib-intizomi, kundalik rejimning aniqligi va doimiy jangovar shaylik talablari oilaviy muhitga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Barkamol shaxsning intellektual rivojlanish, axloqiy yetuklik, jismoniy chiniqqanlik va ijtimoiy faollik omillari harbiy xizmatchilarning farzandlarida vatanparvarlik, intizomlilik, o‘zi va boshqalarga nisbatan talabchanlik, mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash va o‘ziga yuqori talab qo‘yish qobiliyatini shakllantirishi aniqlandi. Harbiy hayotning qat'iy tartib-qoidalari va intizomi farzandlarga ham ta'sir ko‘rsatib, ularning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi isbotlandi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar oilalarida tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashda ma'lum bir qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Xizmat taqozosi bilan yashash joyining va maktabning tez-tez o‘zgarishi (rotatsiya jarayoni) bolalarning psixologik holatiga va o‘quv jarayoniga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Doimiy ko‘chib yurish zarurati bilan yuzma-yuz keladigan farzandlarda yangi madaniy va ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni murakkab kechib, ularda o‘zaro munosabatlarda dezoriyentatsiya va yuqori darajadagi bezovtalik holatlari kuzatilishi mumkin. Bu holat harbiy xizmatchilar farzandlarini yangi muhitga moslashtirish, ularda mustahkam axloqiy immunitetni hosil qilish uchun uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maxsus pedagogik tizimini yaratish taqozo etilishini ko‘rsatdi.

2. Uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning tashkiliy-uslubiy asoslari Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishda chidamlilik, yetakchilik qobiliyatlarini va harbiy madaniyatni tushunishni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim dasturlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarning ijtimoiylashuvi va fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlash uchun ularni mahalliy ta'lim tizimlari bilan integratsiya qilish, zarur resurslar va dasturlardan foydalanish imkoniyatini yaratish tashkiliy-uslubiy jihatdan mantiqiy isbotlandi.

Ma'naviy va ruhiy qadriyatlarning birlamchiligi, ma'naviyat va ijtimoiy idealizm, biologik, psixologik va tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liqlik, jismoniy va aqliy rivojlanish, tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish (ijtimoiy naturalizm), moddiy ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanishga bog'liqlik, mehnat faoliyati hamda iqtisodiy samaradorlik (ijtimoiy materializm) kabi istiqbolli ilmiy paradigmalar harbiy oilalarda tarbiya tizimini rivojlantirishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilar oilalarida farzandlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ularda Vatanga

muhabbat, sadoqat, milliy g'urur va o‘zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish uzluksiz tarbiya jarayonining bosh mezoni hisoblanadi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, oiladagi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit va jamoatchilik institutlarining hamkorligi bolalarda huquqiy savodxonlik va yuksak huquqiy madaniyatni tarkib toptiradi.

3. Harbiy xizmatchilar oilalarida tarbiya jarayonini optimallashtirish yo‘llari va pedagogik mexanizmlar

Olingan natijalar asosida harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari ishlab chiqildi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini harbiy oilalar farzandlarini kamol toptirishning markaziy omili sifatida tadqiq etish shuni ko‘rsatdiki, bunda quyidagi pedagogik mexanizmlarni qo‘llash yuqori natija beradi:

Harbiy xizmatchilar farzandlari uchun ularning intellektual va jismoniy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus ta'lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Harbiy va fuqarolik sektorlaridagi ta'lim muassasalari o‘rtasida uzluksiz hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning jamoat hayotida faol ishtirokini ta’minlash.

Ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini yanada oshirish, ularga zamonaviy pedagogik va psixologik usullarni o‘rgatish bo‘yicha maxsus treninglar hamda seminar-mashg'ulotlarni tashkil etish.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy qismlarda va ta'lim muassasalarida oilalar bilan ishlash mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi ijrosini ta’minlash.

Shu tariqa, olib borilgan tahlillar va empirik natijalar harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan

tavsiyalarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanligini to‘laqonli tasdiqladi.

XULOSA

Harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik tizimini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish bo‘yicha olib borilgan kompleks tadqiqotlar mazkur jarayonning jamiyat hayoti hamda davlat xavfsizligi tizimidagi strategik ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib berdi. Ma'lumki, harbiy xizmat o‘ziga xos murakkab shart-sharoitlari, qat'iy tartib-intizomi, jangovar shaylik talablari hamda yashash joyining muntazam o‘zgarib turishi (rotatsiya) bilan fuqarolik sohalaridan keskin farq qiladi. Olib borilgan tahlillar shuni tasdiqladiki, bunday o‘zgaruvchan va o‘ta mas'uliyatli muhit farzandlar tarbiyasiga, ularning ijtimoiy-pedagogik moslashuviga hamda oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligiga to‘g'ridan-to‘g'ri ta'sir ko‘rsatadi. Xususan, doimiy ko‘chib yurish oqibatida o‘quvchilarning ta'lim olish jarayonida uzilishlar yuzaga kelishi, yangi maktab jamoasiga, o‘qituvchilar va tengdoshlariga moslashishdagi qiyinchiliklar ularning nafaqat intellektual rivojlanishiga, balki xulq-atvori va ma'naviy dunyoqarashiga ham ma'lum darajada salbiy ta'sir etish xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek, harbiy xizmatchining xizmat vazifalari bilan doimiy bandligi sababli oiladagi tarbiyaviy yukning to‘liq ayol (ona) zimmasiga tushib qolishi farzand tarbiyasida pedagogik disproporsiyani keltirib chiqarishi empirik jihatdan o‘z isbotini topdi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va harbiy oilalarda tarbiya uzluksizligini ta’minlash faqatgina oilaviy nazorat yoki an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar harbiy xizmatchilar farzandlarida vatanparvarlik, intizomlilik, yuksak ma'naviyat va intellektual salohiyatni shakllantirish uchun “Ta'lim muassasasi – Oila – Harbiy qism” hamkorligiga asoslangan, qat'iy ishlovchi yaxlit pedagogik mexanizmni amaliyotga joriy etish zaruratini ko‘rsatdi. Maktab va harbiy qismlar o‘rtasida uzviy aloqalarni

o‘rnatish orqali ota-onalarning farzand ta'lim-tarbiyasidagi bevosita ishtirokini ta’minlash eng samarali yo‘ldir. Shu nuqtai nazardan, harbiy shaharchalarga biriktirilgan ta'lim muassasalarida rotatsiya qilingan o‘quvchilar uchun “Tezkor ijtimoiy-pedagogik moslashuv” dasturlarini yo‘lga qo‘yish, maktab jamoasida turli ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning tezkor moslashuvini ta’minlashda ularga ijtimoiy pedagoglar va ilg'or tengdoshlari orqali ko‘maklashish (mentorlik) tizimi boladagi ruhiy va ta'limiy bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilar va ularning turmush o‘rtoqlarining pedagogik madaniyati va kompetentligini yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Qo‘mondonlik hamda ta'lim muassasalari hamkorligida ota-onalar uchun muntazam ravishda “Ota-onalar maktabi” mashg'ulotlari, turli seminar-treninglar tashkil etish, xizmat vaqti grafigida farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun maxsus “Oila kuni”ni belgilash oiladagi tarbiyaviy muhitni sog'lomlashtirishning muhim omillaridandir. Yosh harbiy oilalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularga tarbiya sirlarini o‘rgatish maqsadida harbiy hayot xususiyatlarini inobatga olgan maxsus o‘quv-uslubiy adabiyotlar va pedagogik tavsiyanomalar yaratilishi ham dolzarb vazifalardan sanaladi. Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilar oilalarida uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zamonaviy va innovatsion pedagogik mexanizmlarini amaliyotga keng tatbiq etish nafaqat ushbu qatlamdagi oilalar farovonligini, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlaydi, balki Yangi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan, jamiyatimiz tinchligi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan mustahkam irodali, aqliy va jismoniy jihatdan barkamol, chinakam vatanparvar avlodni voyaga yetkazishning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 590-son “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent: QMMB, 2022.

Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1999. – 200 b.

Qodirov U.D. Yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2019. – 144 b.

G‘afurov B.T. Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 56 b.

To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy bilish metodologiyasi. – Toshkent: “Zarqalam”, 2005. – 160 b.

Xasanov A.A. Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Mudofaa vazirligi nashriyoti, 2018. – 240 b.

Shoumarov G.B. Oila pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2011. – 280 b.

Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008. – 288 b.

Jalolova M.O. Harbiylar oilasida tarbiyaviy muhit va uzluksiz ta'limning pedagogik mexanizmlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2024. – 52 b.